

VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQLARIGA OID O`ZBEKISTON HAMDA XALQARO NORMALARNING O`ZIGA XOSLIGI

Aralov Jahongir

JDPU tarix fakulteti Milliy goya manaviyat asoslari va huquq talimi yo`nalishi talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so`zlar: bola huquqlari, xalqaro norma, BMT, deklaratsiya, jinoiy javobgarlik, jinsiy zo`ravonlik, konvensiya.

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalar huquqlari himoyasining xalqaro va milliy mexanizmlari, huquqiy maqomi, amaliy ahamiyati bayon etilgan. Xalqaro huquqiy normalarning milliy huquq tizimiga implementatsiya qilinishi va hamkorlik samaradorligi yoritilgan. Bndan tashqari, Konstitutsiyamizning bosh yo`nalishi - insonni va uning hayotini ulug`lash ekanligini, inson va uning hayoti, erikligi, sha`ni, qadr-qimmatini hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishini yoritishga bag`ishlanadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

KIRISH

Hech kimga sir emaski, bolalar har doim davlat va jamiyat tomonidan g`amxo`rlik qilish va qo`llab-quvvatlashga muhtojdirlar. Bu ularga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bilan berilgan huquqdir. Ya`ni deklaratsiyaning 25-moddasida ta`kidlanganidek: "Onalik va bolalik alohida g`amxo`rlik va yordam huquqini beradi". Shunday ekan, har bir davlatda, jumladan, O`zbekistonda ham bola huquqlari kafolatlarini ta`minlash davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri bo`lishi lozim.¹

Yangi tarix davridan inson huquqlarini ta`minlash borasidagi harakatlar umumbashariy hamkorlikdir, jumladan, bola huquqlari sohasi ham bu hamkorlikning bir bo`lagidir. Bu boradagi hamkorlikda davlatlar oldidagi vazifalar teng huquqlilik, xalqaro huquq normalarini va shartnoma majburiyatlarini vijdonan ado etish, davlat suverenitetini hurmat qilish asosiy jihatlardandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma`naviy jihatdan himoya qilish bo`yicha mustahkam huquqiy baza shakllantirilgan. Xususan, Konstitutsiya, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqa bir qator qonun hujjatlarida bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalar o`z ifodasini topgan. Bu borada keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

¹ Rustam Atovulloev. Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy markazi Bosh yuriskonsulti. "Bola huquqlari to`g`risidagi xalqaro standartlarga rioya qilish O`zbekiston Respublikasining bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi ustuvor yo`nalishi" Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy markazi veb sayti asosida.

Oliy Majlis Senatining yigirma birinchi yalpi majlisida ma'qullanib, joriy yilning 7 dekabrda Prezidentimiz tomonidan imzolangan «Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunga muvofiq, amaldagi bir qator qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgani ham ana shunday islohotlarning mantiqiy davomidir.

Yangi qonunga ko'ra, endilikda jinoiy javobgarlikka tortishning eng kichik yoshi 14 yosh etib belgilandi. Bu ko'rsatkich amalda 13 yosh edi.

Bundan tashqari 16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanmoqda. Mazkur sohadagi jinoyatlar uchun jazo choralari kuchaytirilmoqda.

Jinoyat kodeksining 128-moddasida (o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish) ozodlikdan mahrum qilish jazosining maksimal muddati 5 yildan 7 yilgacha oshirilmoqda.

Shuningdek, ushbu kodeksning 129-moddasi 1-qismidagi (o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish) ozodlikdan mahrum qilish jazosi 1 yildan 2 yilgacha ko'paytirilmoqda.

Bundan tashqari sud-tergov jarayonida bola huquqlarining protsessual kafolatlari kuchaytirilmoqda. Jumladan, voyaga yetmagan jabrlanuvchi yoki guvohni so'roq qilishning umumiy davomiyligi kun davomida, dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda, 4 soatdan oshmasligi belgilanmoqda (amalda 8 soat edi).

Endilikda voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilishda pedagog bilan bir qatorda psixolog ham qatnashishi shart.²

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimiz mustaqillikning ilk davridayoq bola huquq va erkinliklarini himoya qilishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi. Shu bois eng avvalo BMTning 1989 yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qildi. O'zbekiston ushbu Konvensiyaga qo'shilgach, bola huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha bir qator xalqaro-huquqiy majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi. Shundan buyon mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasiga Konvensiya talablarini bajarilishi to'g'risida doimiy ravishda hisobotlar taqdim etib kelmoqda.

Bola huquqlarini himoya etishga qaratilgan ko'plab deklaratsiyalar, xartiya va bitimlar qabul qilingan bo'lib, ularda bolaning haq-huquqlarini himoya qilish qoidalari va me'yorlari mustahkamlangan. Ammo qayd etish kerakki, huquqiy qoidalar va me'yorlar yaratilgani bilan u o'z-o'zidan amalga oshib qolmaydi va o'z-o'zidan samarali bo'lmaydi. Buning uchun uni davlatlar tomonidan amalga oshirishi uchun, ularni qo'llab-quvvatlaydigan, kuzatib boradigan, bu borada davlatlar faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan xalqaro mexanizm lozimdir. Shuning uchun ham bola huquqlarining xalqaro himoyasi to'g'risida fikr yuritilganda mazkur xalqaro-huquqiy hujjatlarni amalga oshirishning mexanizmi sifatida xalqaro institutsional tizimga alohida e'tibor qaratish lozim.³

Mazkur xalqaro institutsional tizim faoliyatida BMT va uning huzurida tashkil etilgan maxsus tashkilot va jamg'armalarni alohida e'tirof etib o'tish kerak. Shu o'rinda bir jihatga alohida urg'u bermoq joizdir: davlatlarning bola huquqlariga oid xalqaro hamkorligi turli shakllarda ifodalansada, xalqaro mexanizmlar bu hamkorlikning mutanosibligini, ya'ni davlatlar bolaning qanday huquq va erkinliklari ta'minlashi kerakligini, ishlab chiqilgan yagona universal standartlarga rioya etilishini, har bir davlat o'z milliy-huquqiy asosini belgilashda xalqaro standartlarga amal qilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradilar, shu bilan birga, nafaqat davlatlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni, balki xalqaro hukumatlararo va xalqaro nohukumatlararo tashkilotlar doirasida ham global aloqalarni amalga

² www.lex.uz sayti ma'lumotlari asosida.

³ Mo'minov A. Xalqaro tashkilotlar huquqi. O'quv qo'llanma. –T.: JIDU, 2021; shuningdek, bola huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.

oshiradilar.

Bolalar huquqlarini ta'minlash borasida xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga misol sifatida BMT Bosh Assambleyasi, EKOSOS, YUNISEF, YUNESKO, Bola huquqlari qo'mitasi, XMT, BMTTD kabi tizimlar kiradi.

BMTning Nizomining 13-va 22-moddalarida Bosh Assambleyaning Inson huquqlari borasidagi vakolatlari belgilab o'tilgan.

XULOSA

Inson huquqlarini himoya qilish xalqaro mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- BMT ning Nizomida ko'rsatib o'tilgan organlar;
- BMT ning konvensiyaviy organlari;
- Maxsus proseduralar;
- BMT ning ixtisoslashgan tashkilotlari;
- BMT ning Nizomida ko'zda tutilgan organlari.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda bolalar huquqini himoya qilishning zarur huquqiy bazasi yaratildi. Unga ko'ra bola huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish mexanizmi ishlab chiqilib, davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining izchil olib borilayotgan faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy va tashkiliy sharoitlar va kafolatlar yaratish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-"O'zbekiston"-2021.
2. Inson huquqlari Bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning fakultativ protokollari". Toshkent-20020, 7-b.
3. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. - T. KonsauditinformNashr, 2019.
4. The evolution of the Children and Armed Conflict mandate 1996-2021. (1996- 2021 yillardagi bolalar va qurolli mojarolar mandati evolyutsiyasi) <https://childrenandarmedconflict.un.org/>.
5. Mo'minov A. Xalqaro tashkilotlar huquqi. O'quv qo'llanma. -T.: JIDU, 2021.
6. Рашидов, Д. (2022). ИЖИМОИЙ ЕНТИЙОЖМАНД ТОИФАГА МАНСУБ ШАХСЛАРНИ ТРАНСПОРТС КОРХОНАЛАРИДА ИШГА ЈОЙЛАСИИРИШ УЧУН ИШ О 'РИНЛАРИНИ ЗАХИРАЛАШ. Scienceweb academic papers collection.
7. Rustam Atovulloev. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi Bosh yuriskonsulti. "Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro standartlarga rioya qilish O'zbekiston Respublikasining bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi ustuvor yo'nalishi" Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi veb sayti asosida.

www.lex.uz

www.qonun.uz

www.norma.uz